

Mavzu: Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Aa Kitob – bebaho xazina.

kutubxona

LUG'AT



Kutubxona kitoblar saqlanadigan joy degan ma'noni anglatadi. Yurtimizda bunday maskanlar juda ko'p. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi ana shunday asarlar saqlanadigan va kitoblar mutolaa qilinadigan eng yirik maskandir.

Dunyodagi eng katta kutubxona AQSHning Vashington shahrida joylashgan Kongress kutubxonasi hisoblanadi. Uning fondida yuz milliondan ortiq turli xil kitoblar, qo'lyozmalar, xaritalar va rasmlar mavjud bo'lib, kitob javonlarining umumiy uzunligi yuzlab kilometrni tashkil qiladi.



1-mashq. O'qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlang. Tinish belgilarini qo'yib, ko'chiring.

1. Kamola 4-sinfda o'qiydi⁴
2. Voy, qanday go'zal kapalak
3. Bugun sen kutubxonaga borasanmi
4. Kitoblarni ehtiyot qil
5. Yurtimiz doimo tinch bo'lsin



2-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'yib, o'qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini ayting.

Tong nafasi

Zarrin nurlari-la sochimni silab
Quyosh uyg'otadi erta tong bilan
Ko'ksimni ochaman kengliklarga men
Yuragim uyg'onar go'yo bong bilan

Ro'zaxon Safarboyeva



3-mashq. O'qing. Ushbu gaplarni so'roq va undov gaplarga aylantirib ko'chiring.

1. Bizning sinfimiz maktabdagi eng namunali sinflardan biri.
2. Kitob insonning eng yaqin do'sti hisoblanadi.
3. Bobolarimiz Vatan ozodligi uchun jasorat bilan kurashganlar.
4. Tabiatni asrash har bir insonning burchidir.
5. Mehnatsevar inson o'z maqsadiga, albatta, erishadi.



4-mashq. She'rni ifodali o'qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang. Husnixat bilan ko'chiring.

Kuz qo'shig'i

O'lkada qaynar hayot,
Dillarda sevinch kuyi.
Yasha, mehnatkash elim!
Kuzak – mo'l hosil to'yi.

Ergash Raimov

Qay biri?

– O'rik shirinmi, olma
Bilasanmi, hoy Chaman?
– Ikkisidan olib kel,
Totib ko'rib, aytaman!

Abdurahmon Akbar

- Undov belgisi qatnashgan gaplarni qanday ohangda o'qidingiz?



5-mashq. Ko'chiring. So'roq va undov gaplarni aniqlang.

Ona sabog'i

– Onajon, – dedi jajji Bobur, – bulutlarni qo'l bilan ushlab bo'ladimi?

– Bolajonim! – jilmaydi onasi. – Momiq¹ emaski, qo'l bilan tutib bo'lsa. Ular suv zarralari-ku. Faqat bug' holatida. Bug'lardan esa bulutlar paydo bo'ladi. Ular yomg'ir yoki qorga aylanib yog'ayot-gandagina qo'lingizni tutsangiz...

– Ha-a-a, angladim, angladim.

G'iyos Komilov

